4. Аббасова М. Т., Гаджиев А. М. Изменения показателей обмена железа в крови крыс при электромагнитном облучении в дециметровом диапазоне //Гематология и трансфузиология. – 2019. – Т. 64. – №. 3. – С. 274-282.
5. Аманкулова А. А., Макимбетов Э. К. Лечение острого лимфобластного лейкоза у детей на современном этапе (Обзор литературы) //Вестник Кыргызско-Российского Славянского университета. – 2020. – Т. 20. – №. 1. – С. 11-15.

ДИАГНОСТИКА И ЛЕЧЕНИЕ НЕЙРОФИБРОМАТОЗОВ

Хатамов Рустамжон Исломжон угли

Ферганского медицинского института общественного здоровья. Кафедры патологической физиологии и патологической анатомии

Аннотация. Нейрофиброматоз НФ – это группа наследственных заболеваний, характеризующихся развитием опухолей нервной системы, кожными и системными проявлениями. В медицинской практике наиболее распространены три типа: нейрофиброматоз I типа НФ1, нейрофиброматоз II типа НФ2 и шванноматоз**. Каждый из них имеет свои генетические и клинические особенности, требующие дифференцированного подхода к диагностике и лечению.

Ключевые слова: НФ-нейрофиброматоз, НФ1- нейрофиброматоз I типа, НФ2- нейрофиброматоз II типа, Шванноматоз, NGS- Next-Generation Sequencing, Менингиомами, Шванноматоз.

Цель данного обзора – анализ современных методов диагностики и лечения нейрофиброматозов на основе актуальных научных данных.

1. Этиология и генетика нейрофиброматозов

НФ1 вызывается мутациями в гене NF1 на хромосоме 17q11.2, который кодирует белок нейрофибрин – важный регулятор сигнального пути Ras/MAPK. Дефицит нейрофибрина приводит к неконтролируемому росту нейроэктодермальных клеток. НФ2 обусловлен мутациями в гене NF2 на хромосоме 22q12, кодирующем белок мерлин. Дефицит мерлина ассоциирован с нарушением адгезии клеток и их бесконтрольной пролиферацией, что ведет к формированию вестибулярных шванном.

Шванноматоз– это генетически гетерогенное заболевание, связанное с мутациями в генах SMARCB1 и LZTR1, участвующих в регуляции клеточного роста.

2. Клинические проявления

2.1 Нейрофиброматоз I типа

НФ1 встречается с частотой 1:2500 новорожденных и характеризуется:

- Пятнами цвета "кофе с молоком" (≥ 6 , размером ≥ 5 мм у детей, ≥ 15 мм у взрослых).

- Нейрофибромами– опухоли, поражающие кожу, периферические нервы, органы.

-Плексиформными нейрофибромами– агрессивные опухоли, способные малигнизироваться.

- Узелками Лиша – гамартомы радужки.

- Оптическими глиомами – поражение зрительного нерва у 15-20% пациентов.

- Костными дисплазиями– искривления длинных костей, псевдоартроз.

2.2 Нейрофиброматоз II типа

НФ2 проявляется:

«Fiziologiya va patologiyada yangi tadqiqot ufqlari: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar»

- Билатеральными вестибулярными шванномами, вызывающими потерю слуха.

- Менингиомами– опухолями твердой мозговой оболочки.

- Эпендимомы– опухолями спинного мозга.

- Катарактой в молодом возрасте.

2.3 Шванноматоз

Шванноматоз характеризуется:

- Множественными периферическими шванномами.

- Выраженным болевым синдромом без поражения слуха.

3. Диагностика

3.1 Клинические критерии

Диагноз НФ1 устанавливается при наличии ≥ 2 диагностических признаков согласно NIH Consensus Conference .

Для НФ2 основным диагностическим критерием является двустороннее поражение слухового нерва, подтвержденное МРТ с гадолинием.

Шванноматоз подтверждается генетическим тестированием и биопсией опухоли.

3.2 Генетическое тестирование

Методы NGS (Next-Generation Sequencing) позволяют выявить мутации в ****NF1, NF2, SMARCB1, LZTR1****, уточняя диагноз и прогноз заболевания [Ratner et al., 2021].

3.3 Визуализация

- МРТ с контрастированием – основной метод диагностики опухолей ЦНС и мягких тканей.

- ПЭТ-КТ – применяется для выявления злокачественной трансформации нейрофибром.

4. Лечение

Лечение нейрофиброматозов включает хирургические, медикаментозные и экспериментальные методы.

4.1 Хирургическое лечение

Показания:

- Быстрорастущие плексиформные нейрофибромы.

- Вестибулярные шванномы, вызывающие глухоту.

- Симптомные менингиомы.

Риск: высокая вероятность рецидивов и повреждения нервов.

4.2 Таргетная терапия

- Ингибиторы MEK (селуметиниб)– замедляют рост плексиформных нейрофибром.

- Бевацизумаб – подавляет ангиогенез вестибулярных шванном.

- Афинитор (эверолимус) – исследуется для лечения опухолей ЦНС.

4.3 Радиотерапия

Используется ограниченно из-за высокого риска малигнизации опухолей.

4.4 Генная терапия

Перспективное направление – CRISPR/Cas9-редактирование гена NF1 для подавления опухолевого роста.

Заклучение

Нейрофиброматоз остается сложным мультисистемным заболеванием, требующим комплексного подхода. Развитие таргетной терапии и молекулярно-генетических методов диагностики открывает новые перспективы лечения и контроля заболевания.

Источники:

1. Ferner R.E. et al. (2017). Neurofibromatosis type 1: clinical characteristics and diagnosis. *J Med Genet*, 54(6), 361-371.
2. Evans D.G. et al. (2018). NF2 and related disorders. *Neuro-Oncology*, 20(1), 34-45.
3. Bergner A.L. et al. (2020). *Schwannomatosis and related syndromes. *Mod Pathol*, 33(6), 1121-1133.
4. Plotkin S.R. et al. (2019). Update on diagnostic criteria and treatment for neurofibromatosis. *Curr Neurol Neurosci Rep*, 19(5), 20.
5. Zhou H. et al. (2021). Genetic landscape of neurofibromatosis type 1 and 2. *Hum Mol Genet*, 30(7), 1025-1038.
6. Korf B.R. et al. (2019). Surgical approaches to neurofibromatosis type 1 tumors. *Neurosurg Clin N Am*, 30(2), 231-246.
7. Gross A.M. et al. (2020). Selumetinib for plexiform neurofibromas. *N Engl J Med*, 382(15), 1430-1439.
8. Li X. et al. (2022). *CRISPR-based strategies for neurofibromatosis therapy. *Nat Biotechnol*, 40(4), 450-460.

ORGANIZMDA OVQAT HAZM QILISH A`ZOLARI FIZIOLOGIK VA PATOFIZIOLOGIK JIHLTLARI

**Maxmudova Xurmatoy
Sarimsoqova Mashhura**

Farg`ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Ovqat hazm qilish sistemasi organizmning muhim hayotiy jarayonlarini ta'minlovchi tizimlardan biri bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlarini hazm qilish, ularning organizmga so'rilishi va chiqindilarni chiqarish funksiyalarini bajaradi. Ushbu tizimning normal ishlashi fiziologik jarayonlarga bog'liq bo'lsa, turli kasalliklar uning patofiziologik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Fiziologik jihatlariga ovqat hazm qilish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat. Og'iz bo'shlig'i – mexanik qayta ishlash (chaynalish) va dastlabki fermentativ parchalanish (so'lak fermentlari, amilaza). Me'da – gastrik sharbat (pepsin, xlorid kislotasi) ta'sirida oqsillarni boshlang'ich parchalanishi. Ichaklar O'n ikki barmoqli ichak – oshqozon osti bezi fermentlari va o't kislotasi ta'sirida ovqat tarkibidagi moddalar parchalanadi. Ingichka ichak – aminokislotalar, yog' kislotalari va glyukoza ning so'rilishi. Yo'g'on ichak – suv va minerallar so'riladi, mikroflora ta'sirida fermentatsiya jarayoni amalga oshadi. Chiqindilarni chiqarish – hazm qilinmagan qoldiqlar to'g'ri ichak orqali chiqariladi. Ovqat hazm qilish jarayoni nerv va gormonal boshqaruvga bo'ysunadi. Oshqozon va ichak harakatlarini vegetativ nerv tizimi va oshqozon-ichak gormonlari (gastrin, sekretin, xolesistokinin) nazorat qiladi. Ovqat organizmning uyg'un ravishda rivojlanishi hamda bir me'yorda ishlab turishini ta'minlay oladigan bo'lishi kerak, buning uchun ovqat ratsionining miqdori va sifati, kishining kasb-kori, yoshi, jinsiga tegishli ehtiyojlarga monand kelishi lozim. Organizmning fiziologik ehtiyojlari turli shart-sharoitlarga bog'liq. Bularning ko'pchiligi doimo o'zgarib turadi. Shu sababli hayotning har bir fursati uchun aniq to'g'ri keladigan ovqat bo'lishi amalda mumkin emas. Biroq odamda maxsus regulyator (boshqaruv) mexanizmlar bo'lib, ular mazkur paytda o'ziga kerakli miqdordagi zarur oziq moddalarni yeyilgan ovqatdan ajratib oladi va o'zlashtiradi. Lekin organizmdagi moslashtiruvchi regulyator qobiliyatlarning ham ma'lum chegarasi bor; bolalar va keksalarda ular ancha cheklangan. Bundan tashqari, bir qancha oziq moddalar masalan vitaminlar, almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarni odam organizmi moddalar almashinuvi jarayonida hosil qila olmaydi. Bu moddalar organizmga ovqat bilan tayyor holda kirib turishi kerak, aks holda sifatsiz Ovqat mahsulotlarini iste'moli natijasida kasalliklar paydo bo'ladi. Patofiziologik jihatlariga ovqat hazm qilish tizimining buzilishi turli kasalliklar va funksional o'zgarishlar bilan namoyon bo'ladi. Gastrit va oshqozon yarasi – oshqozon shirasining ortiqcha ishlab chiqarilishi yoki himoya mexanizmlarining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Asosiy sabablari – noto'g'ri ovqatlanish, stress, Helicobacter pylori infeksiyasi. Dispepsiya sindromi – oshqozon va ichaklarning harakat faolligining buzilishi natijasida paydo bo'ladigan noqulayliklar (og'irlik hissi, shishish, jig'ildon qaynashi). Ichak kasalliklari masalan Enterit va kolit – ichaklarning yallig'lanishi (infeksiyalar, autoimmun

jarayonlar). Irritabl ichak sindromi (IIS) – ichak peristaltikasining buzilishi bilan bog‘liq kasallik. Malabsorbsiya sindromi – ozuqa moddalarining yetarlicha so‘rilmasligi.. Ich qotishi va diareya – ichak harakatlarining buzilishi sababli paydo bo‘ladigan patologiyalar. Ich qotishi noto‘g‘ri ovqatlanish va harakatsiz turmush tarzidan kelib chiqsa, diareya infeksiyalar yoki oziq-ovqat toksinlari sababli rivojlanadi. Oshqozon osti bezi va jigar kasalliklari, Pankreatit – oshqozon osti bezining yallig‘lanishi, fermentlarning noto‘g‘ri faollashuvi bilan kechadi. Jigar surunkali kasalliklari – gepatit, sirroz va yog‘li gepatoz kabilar metabolizm jarayonlariga ta’sir qiladi.

Xulosa. Ovqat hazm qilish tizimi sog‘lom hayot faoliyati uchun asosiy tizimlardan biri hisoblanadi. Uni sog‘lom saqlash uchun to‘g‘ri ovqatlanish, me‘yoriy jismoniy faollik va muntazam tibbiy tekshiruvlardan o‘tish muhim. Ichak mikroflorasini muvozanatda ushlab turish, oshqozon shirasining kislotali muhitini nazorat qilish va ovqatlanish tartibiga rioya qilish ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining oldini olishga yordam beradi.

СТРЕСС ҲОЛАТИ ВА УНИ КЕЧИШИ

Махмудова Хурматой

Фарғона жамоат саломатлиги тиббиёт институти

Долзарблиги Бугунги кунимизнинг энг кенг тарқалган касалликларидан бири бу стресс ҳолатидир. Стресс бу инсон организмнинг ва психикасининг ташқи муҳитдан келаётган салбий таъсирга жавоб реакцияси бўлиб, инсон ҳаётида вужудга келган муаммони еча олмаётганидан азият чекиш ҳисси пайдо бўлиши билан кечадиган ҳолат. Стресс инсоннинг ҳаётини ҳимоя қилиши учун бажарган ҳимоя реакцияси ҳамдир стресснинг фойдали жиҳатлари ҳам бор яъни бу ҳимоя механизми бизга инқирозли, экстремал вазиятларда омон қолишга ёрдам беради. Бироқ бу ҳолат доимий равишда рўй бериши организмга жиддий зарар етказди. Хусусан, юрак-қон томир тизимига юклама ортади, ҳужайраларнинг қариши тезлашади ва доимий стресс инсоннинг иммун тизимини заифлаштиради. Бунинг оқибатида эса “ухлаб ётган” касалликлар кўзғалади, мавжудлари эса кучаяди. Стресс пайтида гармонларнинг бетартиб ишлаб чиқарилиши қандли диабет ривожланиши, юзда тошмалар пайдо бўлиши, соч тўкилиши, кескин озиб кетиш, ошқозон яраси ва бошқа жиддий патологияларга олиб келиши ҳам мумкин. Стрессда инсон организмда адреналин гормони ишлаб чиқарилади. Стресс ҳолатининг меъёр даражасида бўлиб тургани ёмон эмас. Стресс таъсирида миянинг ишлаш тезлиги ортади. Агар стресс миқдори ва кучи катта бўлса, ажралиб чиққан гормон миқдорининг кўплиги сабаб адреналиннинг организмга салбий таъсири кўринишлари пайдо бўлади. Стресс кўпчилик ўйлагандек руҳий ҳолатга эмас, балки турли физиологик ўзгаришларни келтириб чиқариши мумкин бўлган реакциядир.

Тадқиқот усуллари Маълумотларга кура 50 ва 60% гача иш вақти йўқотилиши Европада ишлаб чиқаришдаги стресс билан боғлиқ. Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотида кўра стресс ҳолати кўп ҳолларда ишловчилар томонидан раҳбарият толпширикларин ўз вақтида ва сифатли қилиб бажариш учун ишчилар билим савияси пастлиги, тажриба етишмаслиги ёки касбдошлари, раҳбарият томонидан босим остида ишлашлари, шу билан бирга қўлларидан келмайдиган ишларга киришишлари натижасида келиб чиқади. Стресс ҳолатига тушиши табиий бўлсада у инсон соғлигига салбий таъсир кўрсатади. Агар стресслар таъсири жуда ҳам чўзилиб кетса у организмга ховф солади яъни унинг турлари турли туман бўлиб оғир ҳолатларда ҳаттоки ўлим билан тўгаши ҳам мумкин. Стрессни енга олмаслик касаллик ва неврозларга олиб келади, Стрессли вазиятга тушиб қолганда, ваҳима босишига йўл қўймаслик, чуқур нафас олиб, тинчланишга ҳаракат қилиш зарур. Бундан ташқари, мунтазам жисмоний машғулотлар билан шуғулланиш тавсия этилади. Сабаби жисмоний фаоллик “бахт” гормонлари ишлаб чиқарилишига ёрдам беради ва инсоннинг кайфиятини кўтаради. Стресснинг олдини олишда соғлом уйку, тўғри овқатланиш, яъни фойдали витамин ва минералларга бой бўлган маҳсулотларни кўпроқ истеъмол қилиш ҳам муҳим роль ўйнайди.

Хулоса Агар инсон стресдан мустақил равишда қутила олмаса, ёрдам сўраб яқинларига ёки шифокорга мурожаат қилиши зарур. Стрессга чидамлик соғлом турмуш тарзи орқали таъминланади. Стрессни бошқариш бўйича мутахассислар очик ҳавода дам олиш ва иш вақтини ва ҳаёт ритмини тўғри шакллантиришни тавсия қилишган. Шунинг ҳам унутмаслик керакки, стрессли юклардан бутунлай қочишнинг иложи йўқ! Шунинг учун уларга тайёр бўлиш керак, кундалик ташвишлар ва атрофдаги воқеликдан “зарба” олишга қодир бўлиш керак. Турли хил салбий фикрларга эга бўлган одамлар билан баҳслашиш учун куч сарфламасликка ҳаракат қилиш. Ҳозирги пайтда ўз ҳиссий ҳолати қандай эканлигига, мунозарага киришиш учун ишончли манбани бор йўқлигига катта эътибор бериш. Инсон ўзини ва атрофдагиларни безовталиқ ҳисси билан баҳоламаслик, ўзи ва бошқаларга нисбатан ноҳақ муносабатлардан тийилиш зарур. Кундалик тартибни бажаришга ҳаракат қилиш, уйқуни, овқатланишни, жисмоний фаолликни кузатиб бориш, гигиена тавсияларига риоя қилиш, шифокор тавсияларига амал қилиш, агар мавжуд бўлса, мунтазам равишда кўрикдан ўтиш зарур. Стрессда тўғри овқатланиш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Озиқ-овқат осон ва яхши ҳазм бўлиши керак. Шошмасдан, кам-камдан овқатланиш. Овқатлангандан кейин бир оз дам олиш керак. Стресс билан курашишда халқ табobati усуллари бор. Мойчечак яхши таъсирга эга. Унинг дамламаси бош оғриғи, уйқусизлик билан курашади ва тинчлантирувчи таъсирга эга. Бу зўриқишни, ташвишларни енгиллаштириш учун ишлатилади, ҳатто оғир стрессда ҳам ёрдам беради.

YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARI BILAN KASALLANISHNING O'SIB BORISHI VA UNING SABABLARI

Qo'ldasheva Malikaxon Hamidillo qizi

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti Pediatriya fakulteti Pediatriya
yo'nalishi 2-bosqich 5123-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyo axolisida va yurtimizda avj olib borayotgan yurak-qon tomir kasalliklarining tarqalish tezligi, eng og'ir kasalliklar orasida yuqori o'rinlarni zabt etib borishi va aholi o'rtasida qancha foizlarda inson umriga zomin bo'lishi haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yurak-qon tomir sistemasi, Yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK), foiz, aholi, xavfli, ko'rsatkichlar.

Inson organizmida fiziologik jarayonlarning normal kechishi uchun yurak-qon tomir tizimi asosiy rol o'ynaydi. Organizmning barcha a'zolari yurak-qon tomir tizimi orqali o'ziga kerakli bo'lgan ozuqani oladi, to'qima va a'zolar nafas oladi hamda organizm gumoral yo'l orqali boshqariladi. Bu tizim asosiy transport vazifasini bajaradi. Agar yurak-qon tomir tizimidagi normal fiziologik jarayonlar buzilsa, organizm jiddiy va xavfli kasalliklar rivojlanishi mumkin. Yurak-qon tomir tizimi bilan bog'liq kasalliklar juda ko'p bo'lib, ular ushbu tizimning turli funksiyalariga ta'sir qiladi.

Yurak-qon tomir tizimiga oid ba'zi kasalliklar:


- Tojsimon arteriya kasalligi – yurakni qon bilan ta'minlaydigan arteriyalarning torayishi yoki to'silishi.
- Periferik arterial kasallik – qo'l va oyoqlarni qon bilan ta'minlaydigan arteriyalarning torayishi.
- Miya qon-tomir kasalliklari – miya qon tomirlarining shikastlanishi, masalan, insult.
- Kardiyomiyopatiya – yurak mushaklari kasalliklari.
- Gipertenziv yurak kasalligi – yuqori qon bosimi natijasida yuzaga keladigan yurak kasalliklari.
- Yurak ritmining buzilishi – yurak ritmining me'yoridan chetga chiqishi.

Bu kabi hayot uchun xavfli kasalliklar dunyo va mamlakatimiz aholisi orasida tobora ko'payib bormoqda. Xususan, yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) dunyo bo'ylab o'limning asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 2016-yilda 17,9 million kishi YQTKdan vafot etgan, bu esa global o'lim holatlarining 31 foizini tashkil etadi. Ushbu o'limlarning 85 foizi yurak xuruji va insult sababli yuz bergan.

AQShda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, bugungi kunda ayollar, ayniqsa, yosh xotin-qizlar orasida yurak falaji va xuruji uchrash holatlari tobora ko'paymoqda. Circulation ilmiy jurnalida yozilishicha, AQShda 1995–1999 yillar orasida yurak huruji kasalliklari bilan shifoxonaga murojaat qilgan bemorlarning 27 foizi 35–54 yosh oralig'ida bo'lgan bo'lsa, 2010–2014 yillarda bu ko'rsatkich 32 foizga yetgan.

«Fiziologiya va patologiyada yangi tadqiqot ufqlari: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar»


Yosh ayollar orasida yurak huruji kasalliklari bilan shifoxonaga yotqizish holatlari 1995–1999 yillarga nisbatan 2010–2014 yillarda 10 foizga oshib, 21 foizdan 31 foizga yetgan, erkaklar orasida esa bu ko‘rsatkich 3 foizga o‘shib, 30 foizdan 33 foizga ko‘tarilgan. Bu raqamlardan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda yosh ayollarda ham yurak-qon tomir kasalliklari tobora ortib bormoqda.



Mamlakatimizda ham bu kasalliklarning ko‘payishi kuzatilmoqda. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, respublika bo‘yicha qariyb 4 million aholida yurak-qon tomir kasalliklari aniqlangan bo‘lib, bu umumiy aholining 12 foizini tashkil etadi. Ayniqsa, bunday kasalliklarga chalingan aholining eng ko‘p uchraydigan hududlari quyidagilardir:

- Namangan viloyati – 18% (450 ming nafar)
- Farg‘ona viloyati – 17% (600 ming nafar)
- Buxoro viloyati – 14% (230 ming nafar)
- Qashqadaryo viloyati – 13% (470 ming nafar)

Bu ko‘rsatkichlar respublika o‘rtacha darajasidan yuqoridir.



«Fiziologiya va patologiyada yangi tadqiqot ufoqlari: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar»

Yurak-qon tomir kasalliklarning yuqori darajada uchrashiga turli omillar sabab bo'lishi mumkin, jumladan:

- Noto'g'ri ovqatlanish
- Jismoniy faollikning yetishmasligi
- Tamaki va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish
- Stress va yuqori qon bosimi

Ushbu omillarni nazorat qilish, sog'lom turmush tarzini olib borish hamda doimiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tish yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va ularning inson hayotiga xavfini kamaytirishga yordam beradi.

ZAMONAVIY TIBBIYOTDA OVQAT HAZM QILISH TIZIMINING TEKSHIRISH USULARI

Akbaraliyeva Mushtariy

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Pediatriya fakulteti pediatriya yo'nalishi
2- bosqich, 5223-guruh talabasi

Annotatsiya: Diagnostikaning ilg'or texnologiyalari va metodlari ularning samaradorligi, afzalliklari, ovqat hazm qilish kasalliklarini erta aniqlash va samarali davolashdagi o'rni.

Kalit so'zlar: Endoskopik usullar, ultra tovush diagnostikasi, biopsiya va diagnostika

Kirish: Ovqat hazm qilish tizimi inson organizmining eng muhim hayotiy tizimlaridan biri bo'lib, ovqatni qabul qilish, uni hazm qilish, oziq moddalarni so'rish va chiqindilarni chiqarib tashlash funksiyalarini bajaradi. Zamonaviy tibbiyotda hazm qilish tizimi kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash va samarali davolash uchun turli diagnostik usullar joriy etilgan. Ular laboratoriya, instrumental va innovatsion texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot usullari oshqozon-ichak trakti kasalliklarini erta aniqlash, ularning patogenezi va rivojlanish mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism: hazm qilish tizimi kasalliklarini aniqlash dastlab bemorning shikoyatlarini va umumiy tekshiruvdan boshlanadi. Ovqat hazm qilish bilan bog'liq muammolar (og'riq, ishtaha yo'qolishi, shishish, qorin dam bo'lishi) o'rganiladi. Keyin bemorning holatiga qarab tekshiruvlar olib boriladi. Palpatsiya orqali qorin sohasidagi og'riq yoki zichlashgan joylar aniqlanadi, perkussiyada ichaklardagi gaz to'planishini tekshiriladi, auskultatsiya orqali ichak peristaltikasining faolligi baholanadi. Laboratoriya diagnostikasi oshqozon-ichak trakti va hazm qilish tizimining umumiy holatini baholashda muhim rol o'ynaydi. Umumiy qon tahlili (UQT) da organizmning yallig'lanish jarayonlari aniqlanadi, biokimyoviy qon tahlilida jigar fermentlari, pankreatik fermentlari va boshqa muhim ko'rsatgichlar aniqlanadi. Bundan tashqari hazm qilish kasalliklarida najastahlilidan foydalaniladi. Bunda yashirin qon tahlilidan ichakdan qon ketishini aniqlashda, koprogrammada najas tarkibini aniqlash orqali ovqat hazm qilishning sifati baholanadi, parazitologik tekshiruvlar orqali ichak parazitlari aniqlanadi. Instrumental diagnostika usullarida oshqozon-ichak traktining tuzilishi va funksional faoliyatini batafsil o'rganish imkonini beradi. Endoskopik usullardan birinchisi Esofagogastroduodenoskopiya (EGDS) bo'lib qizilo'ngach, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak shilliq qavatining holati o'rganiladi, biopsiya olish imkonini beradi. Kolonoskopiya orqali yog'on ichak va tog'ri ichakni tekshirish, yallig'lanish, poliplar va o'simtalarni baholashda amalga oshiriladi. Kapsulali endoskopiya: kichik ichakni vizualizatsiya qilish uchun qo'llaniladi. Radiologik usullarga KT va MRT, UTD kabilar va rentgen kontrast tekshiruvi kiradi. Rentgen kontrast tekshiruvda oshqozon-ichak traktining shakli va funksional o'zgarishlarini baholash, kompyuter tomografiya (KT) va magnit-rezonans tomografiya (MRT) da ichki organlarning batafsil tasvirlarini olish mumkin.

«Fiziologiya va patologiyada yangi tadqiqot ufqlari: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar»

Ultratovush diagnostikasi (UTD)da jigar, o't pufagi, oshqozon osti bezi va ichaklarning holati aniqlanadi. Biopsiya va gistologik tekshiruvlar: Biopsiya- oshqozon yoki ichak devoridan to'qima namunasini olish va laboratoriyada tekshirish, gistologik tahlil- onkologik va boshqa patalogik o'zgarishlarni aniqlashda foydalaniladi. Hazm qilish tizimi kasalliklarida Innovatsion diagnostika usullaridan ham foydalaniladi. Genetik testlar- irsiy oshqozon-ichak kasalliklarini aniqlashda, Virtual kolonoskopiya-odatdagi kolonoskopiyaga alternativa bo'lib, kompyuter tomografiya yordamida amalga oshadi.

Xulosa: Hazm qilish tizimini zamonaviy tibbiy tekshirish usullari kasalliklarni erta aniqlash, profilaktika qilish va samarali davolash imkonini beradi. Har bir usulning o'ziga hos afzalliklari bo'lib, ularning kombinatsiyasi aniq tashxis qo'yish uchun muhimdir. Diagnostika texnologiyalarining rivojlanishi hazm qilish tizimi kasalliklarini yanada samarali aniqlash va davolashga yo'l ochmoqda.

FERTIL VA KEKSA YOSHLI AYOLLARDA ADENOMIOZ KASALLIK TAHLILI

Badriddinov O.U.¹, Erkinova M.R.²

^{1,2} *Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

Annotatsiya: *Tadqiqotning maqsadi fertil va keksa yoshdagi ayollarda adenomioz kasalligining klinik-morfologik xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Tadqiqot adenomiaz kasalligi aniqlangan, 30 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan 50 nafar ayollarning malumotlari asosida olib borildi. Adenomiaz kasalligining dolzarbligi davolash hamda diagnostikadagi qiyinchiliklar hamda ayollarning hayot sifatidagi salbiy ta'sirlar ushbu kasallikning keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Bu boradagi vazifalar ayollar orasida adenomioz bilan kasallanish epidemiologik tahlilini asoslash iborat.*

Kalit so'zlar: *adenomioz, fertil, klinik-morfologik, postmenopauza*

KIRISH Hozirgi kunda adenomioz kasalligi ginekologik kasalliklar ichida dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda. Tibbiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, reproduktiv yoshdagi ayollarda adenomioz keng tarqalgan kasallik bo'lib, uning uchrash darajasi 12% dan 50% gacha o'zgarishi kuzatiladi. Ginekologik kasalliklar orasida ushbu kasallik yallig'lanish jarayonlari va bachadon miomasidan so'ng uchinchi o'rinda turishi aniqlangan. Adenomiaz kasalligi fertil yoshdagi ayollarda keng tarqalib, bepushtlik, kichik chanoqda surunkali og'riq sindromi hamda turli mono- va poli a'zoli patologik holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.[1.2.]

Oxirgi statistik ma'lumotlarga qaraganda, ushbu kasallikni hozirda butun dunyo bo'ylab keng tarqalganini tasdiqlamoqda. So'nggi ma'umotlarga qaraganda bu kasallik soni hozir 175 mln reproduktiv yoshdagi ayollarda uchrab, o'rtacha har 8-10 ta ayol ushbu kasallikka chalinganligi aytilmoqda. Rossiyada endometrioz ginekologik kasalliklar tarkibida, ya'ni kichik chanoq a'zolarining patologiyalari, infeksiyon yallig'lanish va miomalar tarkibida yetakchi o'rinlarni egallagan. Bepushtlik uchun diagnostik laparoskopiya paytida endometriozni aniqlash darajasi o'rtacha 25-50% ni tashkil qiladi. Tashqi genital endometrioz ekstrakorporal urug'lantirish uchun reproduktiv texnologiya markaziga murojaat qilgan bemorlarning 35%ida aniqladi.[1.3.8.]. Amerikaning reproduktiv tibbiyot jamiyati ushbu masala bo'yicha 2 marta tavsiyalar bergani ham bu muammoning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu kasallikni davolashning radikal usuli jarrohlik amaliyoti hisoblanib, shu bilan birga gormonal davolash hamda har bir bemorga mustaqil yondashuv va operatsiyagacha bo'lgan davolash hozirgacha muhim ahamiyatga ega [3].

Endometriozni aniqlash darajasi bepushtlik uchun diagnostik laparoskopiya 25-50% ni tashkil qiladi. Tashqi genital endometrioz ekstrakorporal urug'lantirish uchun reproduktiv texnologiya markaziga murojaat qilgan bemorlarning 35%ida aniqlandi. Amerikaning reproduktiv tibbiyot jamiyati ushbu masala bo'yicha 2 marta tavsiyalar bergani ham bu muammoning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu kasallikni davolashning radikal usuli jarrohlik amaliyoti bo'lib, shuningdek gormonal

«Fiziologiya va patologiyada yangi tadqiqot ufqlari: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar»

terapiya mustaqil davolash va operatsiyadan oldingi davolashda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan[1.3].

Adenomiozda tug'ish yoshidagi ayollarning taxminan 20-30% ida uchraydi. Postmenopauzal yoshdagi ayollarda bu ko'rsatkich kamayishini kuzatamiz, lekin ba'zan simptomlar saqlanadi [8].

Turli sanoat korxonalarida chiqindilari ta'siri, ayollar turmush tarzining izdan chiqishi oqibatida har yili ushbu kasallik bilan kasallanish soni ortib bormoqda.[]

Adenomioz-bu bachadonning mushak qatlamida endometrial to'qimalarning o'sib ketishi bilan bog'liq bo'lgan ginekologik kasallik hisoblanadi. Ushbu holat fertil va keksa yoshdagi ayollarda uchrashi mumkin.

Fertil yoshdagi ayollarda ayollarda adenomioz ko'p hollarda hayz sikli bilan bog'liq bo'lib, tug'ilish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.[4].

Keksa yoshdagi ayollarda esa adenomioz menopauza boshlangandan keyin pasayadi. ba'zan esa simptomlar sezilmasdan davom etishi hamda belgilari saqlanib qolishi mumkin [5.8].

Tahlil va diagnostika usullari: 1).UTT-Bachadon devorlarining qalinlashishi, adenomatoz tugunlarning mavjud bo'lishi.2).Gistologik analiz-bachadon to'qimalarini biopsiya orqali aniqlash. 3).MRT-diagnostikada muhim ahamiyatga ega bo'lib, aniqlashni oshirishda qo'llaniladi[4].

Tadqiqotning ahamiyati: 1) Fertil yoshdagi ayollar uchun asosiy e'tibor bepustlikning davolash hamda reproduktiv salomatlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2) Keksa yoshdagi ayollarda esa, asoratlarni oldini olish va simptomlarni nazorat qilishda asosiy rol o'ynaydi[9].

Adenomiozning turli shakllari ko'pincha minimal simptomlar bilan yoki umuman simptomlarsiz kechishi mumkin, ammo ba'zi hollarda klinik ko'rinish tez rivojlanib, jarrohlik muolajasini talab qiladigan holatlarni yuzaga keltiradi. Ushbu kasallikning asosiy simptomi og'riq bo'lib, barcha bemorlarda uchraydi. Shuningdek, gipermenstrual sindrom 55,7% holatda, tez o'sish esa har ikki holatda va anemiya alomatlari esa uchinchi holatda kuzatilgan.[3.7.8]

TADQIQOT MAQSADI Mazkur izlanishning maqsadi adenomioz patologiyasining turli yoshdagi ayollarda klinik va morfologik turlari, ularning xususiyatlari, qulay diagnostik usullarini o'rganishdan iborat.


MATERIALLAR VA USULLAR Adenomioz kasalligining turli yoshdagi ayollarda birlamchi gistologik verifikatsiyasi maqsadida 50 nafar bemorlarning malumotlari yig'ildi. Adenomioz bilan kasallanganlarning 18 (36%) nafarini fertil yoshdagi ayollar va 32 (64%) nafarini yoshi katta bemorlar va 20 nafar nazorat guruhidagi bemorlar tashkil qildi. Ilmiy izlanish klinik ko'rsatkichlar va sitogistologik, UTT, kolposkopik tekshiruvlar asosida olib borildi. Bemorlarning barchasi Rio va RIATM Farg'ona viloyati filialida nazoratda turadi.

NATIJAR VA MUHOKAMA


Tadqiqot natijalariga ko'ra, bemorlarning 35% - 35 yoshgacha bo'lganlar; 41% - 36 yoshdan 45 yoshgacha; 24% - 46 yoshdan oshgan ayollarni tashkil qiladi. Ayollar shoshilinch ravishda kasalxonaga yotqizilgan bo'lib, ular qon ketish, turli darajadagi og'riq sindromi va hayz ko'rish jarayonining turli ko'rinishlari bilan

«Fiziologiya va patologiyada yangi tadqiqot ufqlari: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar»


shikoyat qilib kelgan. Davriy ravishdagi ogʻriqlar 24,8% ni, hayz jarayonidagi ogʻriq 22,7%ni, hayz davridan oldin ogʻriqni 7,8% bemorlar tashkil qilgan. Barcha holatlarda ham bachadon kattalashgan boʻlib, mioma tugunining kattalashishi bilan bir qatorda, adenomioz oʻchoqlarining aktivligi va formasiga bogʻliq boʻladi. Oʻchoqli adenomiozda bachadon devorining maʼlum qismi, diffuz turida esa – miometriy hamma qismi bir xilda qalinlashgan [10-12]. Tugunli formasida kapsulasi uchramaydi, intratumoral tugunlar hajmi har xil va chegaralari ham aniq emas. Shu bilan birga, endometriozning turli shakllarining uchrash darajasi oʻrganildi [10].



Shunday qilib, morfologik tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, ayollarda endometrioz eng keng tarqalgan patologiyalardan biri boʻlib qoladi (rasm 1,2).



Rasm 1. Endometriy shilliq qavati bezli epiteliysini miometriy qavatiga oʻsib kirishi. Kat. X40. H&E



Rasm 2. Endometriy shilliq qavati bezli epiteliysini giperplaziya va miometriy qavatiga o'sib kirishi. Kat. x40. H&E

Adenomioz va tuxumdonlar endometriozining turli formalarini morfologik tahlillar yordamida aniqlash, profilaktik jihatdan qaytalanuvchi kasalliklarning oldin olishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

1. Adenomioz va tuxumdonlar endometriozining turli usullari, uzoq vaqt davomida simptomlarsiz yoki kam simptomli bo'lib kechishi mumkin. Ammo klinik ko'rinishi tez rivojlanadigan hamda jarrohlik uchun ko'rsatmalar paydo qiladigan patologiya ekanligi qayd etildi.

2. Asosiy ko'rsatma bo'lib esa 100% holatlarda og'riq 50,7% shu bilan birga hayz siklining ko'payib ketishi va har 2-chi bemor ayolda tez o'sish shu bilan birga har 3-chi kasalda anemiya belgilari bilan yuzaga kelishi kuzatildi.

3. Endometriozi bor bemorlarda yallig'lanish jarayonlari ko'p uchragan hollarda surunkali tos suyagida kuchli og'riq bo'lishi bilan birga mono va ko'p a'zolarining patologiyalarini yuzaga kelganligi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Solieva, N. K., & Negmatullaeva, M. N. (2020). Sultonova NA Features Of The Anamnesis Of Women With The Threat Of Miscarriage And Their Role In Determining The Risk Group. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research, (2), 09.

2. Juraeva, G. B., & Zikirova, A. I. (2021, July). Pathomorphological changes of endometriosis in women of Bukhara region. In Euro-Asia Conferences (pp. 134-136).

3. Zhuraeva, G. B., Saidov, A. A., & Israilov, R. I. (2015). The dependence of morphological and morphometric changes in the mucous membrane in acute intestinal infection on the type of pathogen. Youth Innovative Bulletin, 4(1), 193-195

4. Bakhshillaevna, Z. G. (2020). Pathomorphological Characteristics Of Glandular.Hyperplasia Endometry In Women According To The Data Of The Bukhara Regional Pathological Bureau. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 2(11), 142-149.

5. The role of transvaginal ultrasonography combined with velocity imaging and pulsed Doppler in the diagnosis of endometrioma / Alcazar J. L. et al. // Fertil. Steril., 1997. -Vol. 67. -№3.-P. 487-491

6. Gorokhov A. P. Endometrioid ovarian cysts, frequency, features of surgical treatment [Горохов А. П. Эндометриоидные кисты яичников, частота, особенности оперативного лечения / Горохов А. П., Лазарев И. П. // Научный вестник Тюмень. Мед. Акад. Тюмень] 2001. - №1. - С. 108-109.

7. Khamrakulov, T.Z., & Badridinov, O.U. Changes in hemorheology in the pathogenesis of microcirculatory disorders during hypoxic hypoxia. [Хамракулов, Т. З., & Бадридинов, О. У. Изменения гемореологии в патогенезе микроциркулятор-ных расстройств при течение гипоксической гипоксии.] JCPM 2023. №3. 61-66.

8. Khamrakulov, T. Z., Badridinov, O. U., & Shernazarov, A. T. Changes in the pathogenesis of pancreatic microcirculation during hypoxic hypoxia. [Хамракулов, Т. З., Бадридинов, О. У., & Шерназаров, А. Т. Изменения в патогенезе микроциркуляции поджелудочной железы при гипоксической гипоксии.] JCPM 2023. №4. 180-185.

9. Nematillaevna, K. Y. (2022). Causes of occurrence and methods of treatment of strabismus. World Bulletin of Public Health, 17, 45-47. /Xolmatova Yo.N., Badriddinov O.U.//.

10. Karim, O. M. (2024). Pathophysiology of viral hepatitis in children, hepatitis a. Journal of healthcare and life-science research, 3(6), 108-111.

11. Badriddinov, O., & Kholmatova, Y. (2022). Miopiya violation of the refraction is a illness. [Евразийский журнал медицинских и естественных наук.]2(12), 200-204.

12. Kholmatova, Y. N., Khamdamov, Kh. O., Badriddinov, O. U., & Sharapova, M. B. (2021). Modern views on the pathogenesis of uveitis in children. Economy and society. [Холматова, Ё. Н., Хамдамов, Х. О., Бадридинов, О. У., & Шарاپова, М. Б. (2021). Современные взгляды на патогенез увеитову детей. Экономика и социум], (11-2 (90)), 620-624.

ВЛИЯНИЕ НЕКОТОРЫЕ МИКРОЭЛЕМЕНТОВ НА ТИТР-ТИРЕОИДПЕРОКСИДАЗЫ И УРОВЕНЬ ТИРЕОИДНЫХ ГОРМОНОВ ПРИ АУТОИМУННОМ ГИПОТИРЕОЗЕ КРЫС

Бозорова М.Ф., Эсамуратов Р.Ж., Болтаева С.Б., Жуманазорова И.Қ., Ачилов Р., Каюмов Х.Ю., Абдурахманов Ж.С., Бердиёрова С.Х., Пулатова В., Эрназаров М., Кучкарова Л.С.
Национальный университет Узбекистана

Актуальность темы: Аутоиммунный гипотиреоз в настоящее время представляет серьёзную угрозу населению, т.к. географические масштабы этого заболевания увеличиваются, а возрастная планка, напротив уменьшается. Будучи органоспецифическим аутоиммунным заболеванием, оно вызывает разрушение тиреоцитов собственными лимфоцитами и последующий гипотиреоз. Этиогенез аутоиммунного гипотиреоза не выявлен, а лечение направлено на заместительную гормональную или на симптоматическую терапию. Аутоиммунный гипотиреоз встречается чаще в регионах, где в воде и почве имеется микроэлементный дефицит.

Цель исследования: выявление корригирующего влияния некоторых микроэлементов в физиологических и фармакологических дозах на развитие аутоиммунного гипотиреоза.

Материал и методы исследования: Аутоиммунный гипотиреоз вызывали у белых беспородных крыс-самцов крыс путем подкожного введения в основание хвоста смеси тиреоглобулина с адьювантом Фрейнда из расчета 1:1 трижды, после первой инъекции с промежутками в одни и семь суток. При первой инъекции был использован полный адьювант Фрейнда, при второй и третьей инъекции- неполный. В наблюдениях участвовали крысы только с титром анти-тиреопероксидазе, превышающим 2,0 Ед/л. Титр анти-ТПО в сыворотке крови определяли при помощи иммуноферментного RT-2100C Microplate Reader Rayto (Китай), с использованием реактивов фирмы "ХЕМА Со., Ltd" (Россия). Содержание тиреоидных гормонов определяли с применением этого же иммуноферментного анализатора, однако использовали наборы реактивов Assay Genie (Ирландия). Все микроэлементы вводили крысам интрагастрально: йод в составе калия йодида, селен - в составе селенаметионина и цинк - в составе глюконата цинка ежедневно в течение трех месяцев.

Крысы были разделены на две контрольные (позитивный и негативный контроль) и 6 опытные группы. Первой, третьей и пятой опытным группа крыс йод, селен и цинк в вводили в физиологических дозах (1,2; 0,4 и 7,1 мкг/кг соответственно); а третьей, пятой и шестой опытным группам животных препараты вводили в в фармакологических дозах (3,6 и 1,2 и 21,3 мкг/кг соответственно).

Полученные данные показали, что введение йода селена и цинка приводит к сглаживанию аутоиммунного заболевания щитовидной железы, что прежде всего проявлялось в снижении титра анти-тиреоидпероксидазы – основного маркера аутоиммунного гипотиреоза. Для физиологических доз йода и цинка корригирующий эффект был более выражен, чем для фармакологических. Для селена особой дозависимости в терапевтическом эффекте не было обнаружено.

Было отмечено, что содержание тиреоидных гормонов, а именно тироксина свободного и связанного, трийодтиронина уменьшалось, а концентрация гипоталамического тиреотропного гормона, напротив, возрастала, при аутоиммунном гипотиреозе. Возрастание уровня тиреотропного гормона свидетельствует о функциональном напряжении в щитовидной железе,

Интрагастральное введение всех трех микроэлементов в физиологических дозах несколько приводило к нормализации содержания тиреоидных гормонов.

Некоторую нормализацию уровня связанного и свободного тироксина, и трийодтиронина можно объяснить тем, что йод служит материалом для синтеза этих гормонов. Эффект селена и цинка на восстановление содержания тиреоидных гормонов менее проявлялся, и скорее всего связан с антиоксидантным эффектом первого и иммуностропным эффектом второго. Уровень тиреотропного гормона снижался, что обусловлено уменьшению стимуляции синтеза и секреции тиреоидных гормонов при повышении их концентрации в периферической крови по принципу обратной связи.

Таким образом, микроэлементы, при аутоиммунном гипотиреозе приводят к полному восстановлению титра антител к тиреоидпероксидазе и частичному восстановлению тиреоидных гормонов. Частичное восстановление уровня гормонов после введения микроэлементов йода, селена и цинка при аутоиммунной деструкции ткани щитовидной железы, возможно обусловлено частичным, но не полным структурно-функциональным восстановлением тиреоцитов.

Вывод: Аутоиммунный гипотиреоз приводит к повышению титра анти-тиреоидпероксидазы и снижению уровней свободного и связанного тироксина и трийодтиронина на фоне повышения гипофизарного тиреотропного гормона. Введение микроэлементов йода, селена и цинка оказывает заметный корригирующий эффект для титра анти-тиреоидпероксидазы, и частично для гормонов щитовидной железы и гипофизарного тиреотропного гормона. Следовательно, для полной коррекции аутоиммунного гипотиреоза нужны дополнительные фармакологические препараты.

GIPERTIREOZ TA'SIRIDAN YO'LDOSH TERMINAL SO'RG'ICHLARDAGI QON TOMIRLARNING PATOMORFOLOGIK O'ZGARISHLARI

Yusupov Baxtiyor Lutfidin o'g'li

FJSTI, sud tibbiy eksperti va vrach patologanatom

Xatamova Mohlaroy Xamdamjon qizi

FJSTI, Pediatriya yo'nalishi 3-kurs 5322-guruh

Annotatsiya: Annotatsiya Ushbu maqolada gipertireozning yo'ldosh terminal so'rg'ichlaridagi qon tomirlariga ta'sirini ko'rishingiz mumkin. Gipertireoz natijasida yo'ldosh tomirlarida kuzatiladigan patomorfologik o'zgarishlar, jumladan, qon tomirlarining giperplaziyasi, mikrotromboz, devor qalinlashishi va degenerativ o'zgarishlar kuzatiladi. Maqola natijalari homiladorlik asoratlari, xususan, preeklampsiya va intrauterin rivojlanish kechikishining ehtimoliy xavflarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu maqola gipertireoz bilan homiladorlikning monitoringi va davolash strategiyalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslarni taqdim etadi.

Kirish so'zlar: Gipertireoz, Biopsiya usuli, Vazodilatatsiya va gipoksiya, Gemotoksilin, Mikrotromboz, Rivojlanish.

Abstract: Abstract In this article, you can see the effect of hyperthyroidism on the blood vessels in the placental terminal suckers. Pathomorphological changes observed in the placental vessels as a result of hyperthyroidism, including vascular hyperplasia, microthrombosis, wall thickening and degenerative changes, are observed. The results of the article help to identify the possible risks of pregnancy complications, in particular, preeclampsia and intrauterine growth retardation. This article provides a scientific basis for improving monitoring and treatment strategies for pregnancy with hyperthyroidism.

Keywords: Hyperthyroidism, Biopsy method, Vasodilation and hypoxia, Hemotoxylin, Microthrombosis, Development.

Аннотация: Аннотация В этой статье вы можете увидеть влияние гипертиреоза на кровеносные сосуды терминальных присосок плаценты. В результате гипертиреоза наблюдаются патоморфологические изменения, наблюдаемые в сосудах плаценты, в том числе гиперплазия сосудов, микротромбоз, утолщение стенок и дегенеративные изменения. Результаты статьи помогают определить возможные риски осложнений беременности, в частности гестоза и задержки внутриутробного развития. В этой статье представлена научная основа для улучшения стратегий наблюдения и лечения беременных с гипертиреозом.

Ключевые слова: Гипертиреоз, Метод биопсии, Вазодилатация и гипоксия, Гемотоксилин, Микротромбоз, Развитие.

Kirish

Gipertireoz – qalqonsimon bezning ortiqcha gormon ishlab chiqarishi natijasida organizmda metabolik jarayonlarning tezlashuvi bilan kechadigan patologik holatdir. Ushbu holat homiladorlik davrida yoʻldosh (platsenta) tuzilishiga va uning funksiyasiga sezilarli taʼsir koʻrsatishi mumkin. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, gipertireoz yoʻldoshning terminal soʻrgʻichlaridagi qon tomirlarning morfologik va funktsional holatiga oʻzgarishlar kiritadi. Gipertireoz sharoitida yoʻldosh terminal soʻrgʻichlarida kuzatiladigan patomorfologik oʻzgarishlarga olib keladi. Qalqonsimon bez boʻyinning pastki uchdan bir qismida joylashgan boʻlib, shakli kapalak shaklida boʻladi. Organ uchta asosiy gormonni ishlab chiqarish uchun javobgardir: T3 (triiodotironin), T4 (tiroksin) va kalsitonin. Ushbu biologik faol moddalar barcha metabolik jarayonlarda ishtirok etadi va sogʻlom gormonal darajani saqlashda katta rol oʻynaydi. Oddiy darajalari tufayli organizm nafas olishni, ichak faoliyatini, yurak urishini va reproduktiv tizimning faoliyatini saqlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metod

Gipertireoz va uning homiladorlik jarayoniga taʼsiri haqida turli ilmiy manbalar tahlil qilindi. Ilmish ishlar shuni koʻrsatadiki, qalqonsimon bez gormonlari (T3 va T4) ortiqcha ishlab chiqarilganda metabolizm tezlashadi va bu yoʻldosh tomirlariga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Olib borilgan ilmiy ishlarda gipertireozning platsentar qon aylanishini oʻzgartirishi, kapillyarlarning proliferatsiyasiga sabab boʻlishi va homiladorlik asoratlariga olib keladi. Shuningdek, gipertireoz fonida yoʻldoshda mikrotromboz holatlari va qon tomirlarning devor qalinlashishi kuzatiladi. Ayrim oʻtkazilgan ishlarda esa gipertireozning yoʻldosh orqali oʻtib, homila rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkinligi qayd etilgan. Homiladorlik davrida gipertireoz tashxisi qoʻyilgan ayollarning yoʻldosh namunalari olib boriladi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Biopsiya usuli** – yoʻldosh namunalari olish va patogistologik tekshirish uchun ishlatildi.
 - **Gemotoksilin-eozin boʻyoqlari bilan boʻyash** – toʻqimalarni mikroskop ostida yaxshiroq koʻrish va patomorfologik oʻzgarishlarni aniqlash.
 - **Yorugʻlik mikroskopiyasi** – yoʻldosh tomirlarining morfologik holatini baholash.
 - **Statistik tahlil** – olingan natijalarni matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlash va gipertireoz taʼsirini statistik jihatdan asoslasgan.
- Tahlil natijalariga koʻra, gipertireoz bilan bogʻliq yoʻldosh terminal soʻrgʻichlaridagi qon tomirlarida quyidagi oʻzgarishlar kuzatildi:
- **Qon tomirlarining giperplaziyasi** – endoteliyning haddan tashqari oʻsishi va kapillyarlarning koʻpayishi.
 - **Mikrotromboz** – baʼzi qon tomirlarida tromblarning hosil boʻlishi natijasida qon aylanishining buzilishi.
 - **Qon tomirlarining devor qalinlashishi** – intima va media qatlamlarida hujayraviy proliferatsiyaning ortishi.
 - **Degenerativ oʻzgarishlar** – baʼzi tomir devorlarida nekroz va fibrinoid degeneratsiya belgilari.

Gipertiroidizm yurak-qon tomir asoratlari muhim ahamiyatga ega, chunki ularning klinik koʻrinishi yuqori chastotasi va oʻlim va kasallanish xavfi ortadi.

Gipertiroidizmning sababi, bemor bilan bog'liq omillar va asoratlarning genetik asoslari xavf bilan bog'liq va asosiy asosiy mexanizmlar kasallikni davolash va boshqarish uchun muhimdir. Hujayra ta'siridan tashqari, gipertiroidizm ham gemodinamik o'zgarishlarga olib keladi, masalan, oldingi yuklanish va kontraktillikni oshiradi va tizimli qon tomir qarshiligining pasayishi yurak chiqishining oshishiga olib keladi. Taxiaritmiyadan tashqari, sistolik qorincha disfunktsiyasi va diastolik disfunktsiya bemorlarning kichik bir qismida tirotoksik kardiyomiyopatiyaga olib kelishi mumkin, bu o'lim darajasining yana bir asoratidir. Tibbiy adabiyotlarda subklinik hipertiroidizmi davolashning foydalari haqida ba'zi qarama-qarshi ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, hatto qalqonsimon bezning normal ishlashi ham yurak-qon tomir muammolariga olib kelishi mumkin va uni davolash kerak. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, gipertireoz yo'ldosh terminal so'rg'ichlari qon tomirlarining strukturaviy va funksional o'zgarishlariga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa homiladorlikning murakkablashishiga olib kelishi va prenatal rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini oshiradi. Qon tomirlarining giperplaziyasi va devor qalinlashishi yo'ldosh orqali o'tadigan qon miqdorini cheklashi, bu esa homila gipoksiyasiga sabab bo'lishi mumkin.

Mikrotrombozlar va fibrinoid degeneratsiya jarayonlari esa yo'ldoshdagi mikrosirkulyatsiyaning buzilishiga olib kelishi, bu esa homiladorlik asoratlarini keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu natijalar gipertireoz bilan og'riqan homilador ayollarda yo'ldosh faoliyatining diqqat bilan kuzatilishi zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu tadqiqot natijalari homiladorlik davrida gipertireoz tashxisiga ega ayollar uchun maxsus terapevtik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar yo'ldoshdagi patomorfologik o'zgarishlarni molekulyar va hujayra darajasida chuqurroq o'rganishga qaratilishi kerak.

Gipertireoz – qalqonsimon bez gormonlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi natijasida rivojlanadigan patologik holat bo'lib, u turli organ va to'qimalarga, shu jumladan yo'ldoshning terminal so'rg'ichlaridagi qon tomirlariga ta'sir qiladi.

Patomorfologik O'zgarishlar

1. **Kapillyarlarning kengayishi va shishishi** Gipertireoz ta'sirida yo'ldosh kapillyarlarida sezilarli darajada kengayish va endoteliyning shishishi kuzatiladi. Bu holat qon oqimining ortishi va metabolik jarayonlarning faollashuvi natijasida yuzaga keladi.

2. **Endotelial disfunktsiya** Qalqonsimon bez gormonlarining ortiqcha sekretsiyasi endoteliyning buzilishiga olib keladi. Natijada, qon tomirlarning permeabiliteti oshib, interstitsial shish paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

3. **Qon ivish tizimidagi buzilishlar** Gipertireoz sharoitida trombotsitlarning faollashuvi ortib, yo'ldosh kapillyarlarida mikrothromblarning shakllanishiga olib keladi. Bu esa yo'ldosh to'qimalarining gipoksiyasiga va oksidativ stressga sabab bo'lishi mumkin.

Fibroz va nekrotik o'zgarishlar Qon tomir devorlarida sklerotik o'zgarishlar va fibroz to'qimalarning shakllanishi kuzatiladi. Ushbu jarayon uzoq davom etgan gipertireoz holatlarida yanada yaqqol namoyon bo'ladi va yo'ldoshning funksional imkoniyatlarini cheklaydi.

Inflammasion javobning kuchayishi Gipertireoz sharoitida yoʻldosh terminal soʻrgʻichlarida yalligʻlanish mediatorlari faollashib, mahalliy inflammasion javob kuchayadi. Bu jarayon interleykinlar va boshqa yalligʻlanish omillarining oshishi bilan bogʻliq.

Vazodilatatsiya va gipoksiya Gipertireoz natijasida yoʻldoshdagi qon tomirlarining doimiy kengayishi kuzatiladi, bu esa qon bosimining pasayishiga va homila uchun yetarli kislorod taʼminotining buzilishiga sabab boʻlishi mumkin.

